
XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMAN KENGASHINING NAVBATDAGI SESSİYASI BO‘LIB O‘TDI

Bugun Toshloq tuman hokimligining majlislar zalida xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi yetmish oltinchi sessiyasi bo‘lib o‘tdi.

Unda tuman sektor rahbarlari, tuman Kengashi deputatlari, mahalla fuqarolar yig‘inlarining xotin-qizlar faollari hamda tegishli korxonalar va tashkilot rahbarlari ishtirok etdi.

Sessiya kun tartibidagi quyidagi masalalar yuzasidan Toshloq tumanini 2024 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”sini tasdiqlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida “2024 yilda investisiya, eksport va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi hamda vazirlik va idoralarning ustuvor vazifalari” mavzusida o‘tkazilgan 2024 yil 18 yanvardagi videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlarni tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan “Yo‘l xarita”ni tasdiqlash, tumandagi ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni “Ayollar daftari”ning 5-bosqichiga kiritish ro‘yxati va muammolarini hal etish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar “Yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash.

Shuningdek, tumandagi Alisher Navoiy ko‘chasidagi ma‘nan eskirgan ikki qavatdan iborat uylar o‘rnida renovatsiya usulida ko‘p qavatli uy-joylar qurish, nomsiz qabriston va ziyoratgohlarni nomlash, tumanda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, jumladan aholi murojaatlarida ko‘tarilayotgan masalalarni hal etish borasida 2023 yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida. Toshloq tumanida 2024 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturini tasdiqlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 sentyabrdagi “Maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-hususiy sheriklikni yanada qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-316-sonli qarorini ijrosi, tumanda keksa avlod vakillarining hayot sifati va ularning uzoq umr ko‘rish darajasini yanada oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida va boshqa bir qator masalalar yuzasidan mas‘ullarning hisobotlari tinglandi.

Kun tartibidagi masalalar muhokama etilib, savol va takliflar berildi. Qaror loyihasi tayyorlanib deputatlar tomonidan tasdiqlandi.

2024-02-27 16:47:51